

TURIZM INFRATUZILMASI

Boyqulova Shaxzoda

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti

Agroturizm yo'nalishi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13827883>

Annotatsiya. Maqolada infratuzilma xizmatlari moddiy shaklga ega bo'lmagan tovarlar bo'lib, ular hayotiy ehtiyojlarni qondira olishi. Infratuzilma xizmat ko'rsatish sohasiga ko'ra ishlab chiqarish infratuzilmasi ishlab chiqarish ga xizmat ko'rsatuvchi sohalar — yuk tashish transporti, elektr va issiqlik ta'minoti, yo'l xo'jaligi, suv xo'jaligi, ombor xujaligi, ilmiy konstruktorlik xizmati, axborot xizmati va boshqalar. Iqtisodiyot infratuzilmasi sifatida tasniflangan tarmoqlar doirasida yoritiladi.

Kalit so'zlar. turizm, infratuzilma, industriya, transport, turar joy, raqamli platforma, turizm xizmatlari.

Inson hayoti va faoliyatining barcha sohalariga axborot texnologiyalari chuqur kirib borgan zamonda yashayapmiz. Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, balki ortiqcha xarajatlarni ham kamaytiradi, tan olish kerak infratuzilma shakllantirish zarur lekin bunga mablag' va mehnat resurslarini talab etiladi. Respublikamizda infratuzilmani jadal rivojlantirish shahar va sotuvchilar va xaridorlar o'rtasidagi tovar va xizmatlar oqimini soddalashtirish va samaraliroq qilish qishloq hududlari o'rtasidagi "raqamli tafovut"ni bartaraf etish hamda taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini oshirish mamlakatimizda telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirishga jiddiyroq e'tibor qaratishimiz lozim. Muhimi, bu sohaga qaratilayotgan e'tibor natijasida ortiqcha qog'ozbozlik kamayadi hamda jarayonlarni avtomatlashtirish orqali shaffoflikka erishiladi. Raqamli iqtisodiyotning asosiy farqlovchi omili shundaki, axborot eng muhim boylik bo'lib, uning qiymati doimiy ravishda oshib bormoqda. Turizm sohasida yagona axborot makonini shakllantirish masalasi anchadan beri muhokama qilinib kelinmoqda. Bu borada turizm sohasida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan katta ishlar qilindi. Turizm sanoati eng yangi raqamli texnologiyalarni faol joriy etishga to'liq e'tibor qaratmoqda. Shu bilan birgalikda turizmni jadal rivojlantirish tog'risida bir necha qarorlar qabul qilinib ko'plab imkoniyatlar yaratib kelinmoqda turizm infratuzilmasini yanada yaxshilash maqsadida transport yo'llarini ta'mirlash aholi yashash darajasini yaxshilash oziq ovqat iste'molida organik mahsulotlarni ko'paytirish kabi ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Texnologiyalarning rivojlanishi tufayli O'zbekiston Respublikasi aholisining 81 foizi, savdo korxonalarining 93 foizi, transport korxonalarining 80 foizi, davlat organlarining 95 foizi Internetdan foydalanadi. Turistik va rekreatsion firmalar bozor iqtisodiyoti sharoitida yangi mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqish va rivojlantirishga tobora ko'proq muhtoj bo'lib, ular bu bilan bog'liq iqtisodiy manfaatlardan xabardor.

Turizm infratuzilmasini rivojlantirish kelajakda yoshlarni ish bilan bandligini oshirish maqsadida **Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 3 iyun kuni hududlarda turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini ko'paytirish chora-tadbirlari muhokamasi bo'yicha videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.** Dunyoda iqtisodiy vaziyat qiyinlashgan hozirgi sharoitda ko'proq ish o'rni yaratadigan, investitsiya va eksportni

ko'paytiradigan sohalarni qo'llab-quvvatlash zarur. Turizmda bunday salohiyat katta. Bu sohaga yo'naltiriladigan har bir dollar kelgusida 3-4 barobar daromad keltiradi. Har bir yangi ish o'rni boshqa tarmoqlarda yana 2 ta ish joyi hosil qiladi. Mamlakatimizda tarixiy, madaniy va xushmanzara go'shalar ko'p. Ularning negizida turizm maskanlari, mehmonxonalar barpo etildi. Tartib-taomillar soddalashtirilib, sayyohlik biznesiga qulaylik yaratildi. Sayyohlar xavfsizligini ta'minlash maqsadida turizm politsiyasi tashkil etildi. O'tgan yil oktyabrda Samarqandda bo'lgan Butunjahon turizm tashkiloti forumi doirasida 2 milliard 300 million dollarlik investitsiyaviy kelishuvlarga erishilgan edi. Ular orasida turizm infratuzilmasini rivojlantirish, yangi maskanlar barpo etishga qaratilgan loyihalar ko'p.

Jumladan, xorijiy investorlar tomonidan Shahrisabz tumani G'elon va Sarchashma qishloqlari orasida 3 ming gektarli tog'-chang'i majmuasi tashkil qilish boshlandi. Miraki qishlog'i bo'yicha ham master reja ishlab chiqilmoqda. Bu tumanning tarixi ham, tabiati ham diqqatga sazovor. Qolaversa, Shahrisabz shahri Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining "2024 yildagi turizm poytaxti", deb e'lon qilingan.

Shu bois u yerda turizmni rivojlantirish bo'yicha qator chora-tadbirlar belgilandi. Birinchi galda Shahrisabz shahri va Shahrisabz tumanida turizm klasteri tashkil qilinadi. 33 kilometrli Hisorak - G'elon va Hisorak - Sarchashma yo'li kengaytirib, ta'mirlanadi. "Chiroqchi-Sho'rquduq" avtomobil yo'li yaxshilanib, Samarqanddan Shahrisabzga qatnov vaqti qisqaradi. Bu kabi Prezidentimiz tomonidan chiqarilgan barcha qarorlar turizm sohasini shu bilan birgalikda turizm infratuzilmasining rivojlanishiga poydevor qilib ko'rsatishimiz mumkin. O'zbekiston turizm magistrali turizm transport koridori bo'ylab joylashgan turizm infratuzilmasi obektlarida diniy amallarni bajarish namozxona va tahoratxonalar uchun shart-sharoitlar yaratish ham ko'zda tutilmoqda. Turizm faoliyatining rivojlanishiga dinamik omillar ham kuchli ta'sir ko'rsatadi. Mintaqadagi siyosiy beqarorlik, harbiy mojarolar, iqtisodiyotdagi uzoq davom etgan inqirozlar, ishsizlikning katta qismi va boshqalar turizmni rivojlantirish darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu guruhda ijtimoiydemografik omil muhimroqdir. Bu omil aholi turmush darajasi, farovonlik darajasi, bandlik darajasi, demografiya, ta'lim va madaniyat darajasi, urbanizatsiya va boshqalar kabi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi. Sog'liqni saqlash tizimining faollik darajasi, jinoyatchilik darajasi, shuningdek, mintaqadagi ekologik vaziyat kabi omillarni individual ijtimoiy omillarga bog'lash mumkin. Turizm faoliyatini rivojlantirishning moddiy-texnikaviy omillari turizm infratuzilmasi, ya'ni mehmonxonalar, yotoqxonalar, do'konlar, yo'llar, aloqa, banklar va boshqalar hisoblanadi.

References:

1. Алимова М.Т. Худудий туризм бозорининг ривожланиш хусусиятлари ва тенденциялари (Самарқанд вилояти мисолида) И.ф.д. дисс. – Самарқанд: СамИСИ, 2017. 25-26-б.
2. Архипова В.Ф., Девизов А.С. Об инфраструктуре как определяющем факторе развития туризма в регионе. [URL:http://www.roman.by/r-78201.html](http://www.roman.by/r-78201.html)
3. Биржаков М.Б. Введение в туризм. - СПб.: Издательский дом Герда, 2004.
4. Бекларян Л.А., Пшенников А.С. О некоторых аспектах методики исследования региональных проблем // Журнал Аудит и финансовый анализ.-№4. 2001.

5. Жукова М.А. Менеджмент в туристском бизнесе: учебное пособие. – 2-е изд., стер. – М.: Конкурс, 2006. – 193 с., 14 - с.
6. Маматкулов Х.М. Туризм инфратузилмаси. Ўқув қўлланма. – Т.: Ўзбекистон файласуфлар миллий жамияти нашриёти, 2011. 4-5-бетлар.
7. Морозов М.А. Инфраструктурное обеспечение предпринимательской деятельности в туризме: монография. – М.: РосНОУ, 2005.
8. Норчаев А.Н. Туризм инфратузилмасида кутилаётган ўзгаришлар ва имкониятлар. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. январь-февраль, 2019 й № 1,
9. Пардаев М.Қ. ва бошқалар. Хизмат кўрсатиш, сервис ва туризм соҳаларини ривожлантириш: муаммолар ва уларнинг ечимлари. Ўқув қўлланма. – Т.: Иқтисодмолия, 2008. - Б. 133.
10. Сафарова Н.Н. Миллий иқтисодиёт барқарор ривожланишига туризм соҳаси таъсирини прогнозлаштириш услубиятини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент 2018 й. -19-21 б.
11. Тухлиев И.С., Ҳайитбоев Р., Сафаров Б.Ш., Турсунова Г.Р. Туризм асослари. Дарслик. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги. – Т.: Fan va texnologiya, 2014 й. 151-б.
12. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси, 2020 й. 30.12. <https://review.uz/oz/post/poslanieprezidenta-uzbekistana-shavkata-mirziyoyeva-oliy-majlisu>
13. Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолати. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси. – Тошкент: 2020 й.